ISSN: 3060-4613



| | | |
|---|---|---|
| 13.00.00 | 13.00.06 | 01.00.00 |
| 13.00.01 | 13.00.07 | 02.00.00 |
| 13.00.02 | 13.00.08 | 03.00.00 |
| 13.00.03 | 13.00.09 | 09.00.00 |
| 13.00.04 | 07.00.00 | 10.00.00 |
| 13.00.05 | 19.00.00 | 11.00.00 |

№6/2025

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogik, psixometodologik va tabiiy fanlarga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI

Elektron nashr. 160 sahifa,
5-iyun, 2025-yil.

**BOSH MUHARRIR:**
**Ibragimova Gulsanam Ne’matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

**BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI:**
**Mizayeva Faroxat Odiljonovna** – Pedagogika fanlari doktori, dotsent

***TAHRIRIYAT KENGASHI A`ZOLARI***
***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G‘.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Umarova H.O‘. – O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri***
***Qirg‘izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma’murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo‘ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog‘iston)***
***Rejep O‘zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta’lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
***G‘afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Somurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo‘icha falsafa doktori (PhD)***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo‘limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)***

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent davlat texnika universiteti, G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent temir yo‘l muhandislari instituti.

**EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
**Mizayeva Farokhat Odiljonovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
***Umarova H.O'. – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan***
**Qirg'izboyev Abdug'affor Karimjonovich** – Doctor of Historical Sciences, Professor
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali Oliy attestatsiya komissiyasining 26-08-2024 yildagi №11-05-4381/01-Kengash tavsiyasiga ko'ra, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning tadqiqot ishlari yuzasidan dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Asos: OAK Pedagogik texnologiyalar va psixologik tadqiqotlar bo'yicha ekspert kengashi tavsiyasi (29-10-2024-y.; №10); OAK Tartib-qoida komissiyasi qarori (30-10-2024-y., №10/24); OAK Rayosatining qarori (31-10-2024-y., №363/5).

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

# MUNDARIJA

Iqim oʻzgarishi muammolari va "yashil koʻnikmalar"ning rivojlanishi.....14
Abdurashit Karimovich Avliyaqulov

TTJlardagi qizlarni qoʻllab-quvvatlash, mavjud ijtimoiy-axloqiy muammolarni hal etish boʻyicha ilgʻor xorijiy mamlakatlar tajribasini oʻrganish.....18
Xasanboy U. Abdusamatov

Integrativ yondashuv boʻlajak oʻqituvchilarda ijodiy va tahliliy fikrlash koʻnikmalarini rivojlantirishning asosiy omili.....26
Jalilov Nodirjon Azamatovich

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning sibling munosabatlari diagnostikasi.....30
Gʻayibova Nargiza Anorbayevna

Oliy taʼlim muassasalarida taʼlim sifati va samaradorligini oshirishning muhim omillari.....33
Hakimova Gulmira Toʻxtatoshevna

Boʻlajak oʻqituvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni muzey pedagogikasi vositasida rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlari.....37
Marayimova Kibriyoxon Islomjon qizi

Iqtisodiy savodxonlikni oshirishda oʻzbek tilining taʼsiri.....41
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna

Сторителлинг как инструмент формирования ценностных ориентаций старшеклассников.....44
Умрихина Виктория Игоревна

Формирование эстетических предпочтений учащихся музыкальных школ в условиях инклюзивного образования на основе стилевого подхода.....52
Ахунова Умида Ойбековна

Sunʼiy intellektning taʼlimga integratsiyasi: oʻqitish va boshqaruvdagi oʻrni.....55
Abduxamidova Muyassar Xalimjon qizi

Buxorodagi jadidchilik harakatining oʻziga xosligi va maktablardagi taʼlim tizimi.....60
Axrorov Ixtiyor Doniyorovich

Inklyuziv taʼlim sharoitida imkoniyati cheklangan bolalarning moslashuvida oila va maktabning roli.....63
Dadaboyev Jahongir Sherdil oʻgʻli

Влияние длительной госпитализации на образовательную траекторию ребенка: междисциплинарный подход.....67
Сайфутдинова Насиба Нурматовна

Oʻyinning bola faoliyati sifatidagi mohiyati va oʻziga xosligi.....75
Otasheva Lola Shotoʻrayevna

Psixologik tadqiqotning umummetodologik va xususiy metodologik tamoyillari.....78
Xodjimatova Nazira Toshmatovna, Mallayeva Gulshoda Maxmudjonovna

Rivojlanishida nuqsoni bor boʻlgan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda inklyuziv taʼlimning oʻrni.....81
B. Xusniddinova

Boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarida loyihaviy tadqiqotchilik koʻnikmalarini rivojlantirish.....85
Zulaykho Samatovna Roʻziyeva

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarining ogʻzaki va yozma nutq koʻnikmalarini dars jarayonida rivojlantirish texnologiyasi.....89
Xudaybergenova Nawrızbiyke Qanat qızı

Sonlarni obrazlar bilan bogʻlash orqali mantiqiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish metodikasi.....92
Kalekeeva Sarbinaz Turkmenbaevna

Methodology of Teaching English to Preschool Children.....96
Khurshida Tojimurodova

Malaka oshirish jarayonida yoʻriqchilarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishning ijtimoiy zaruriyati..100
Ch. B. Nalibayeva

Oʻqituvchilarning oʻquvchilar bilan hamkorlik munosabatlari.....103
Gʻaniyeva Sayyora Saidmurod qizi

Falsafada haqiqatni izlash: empirizm va rasionallizmning oʻrni.....106
Boymirzayeva Xurshida Sobirovna

Raqamli ta'lim muhitida boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun axborot bilan ishlashni o'rgatishning didaktik asoslari ..... 110
**Ismoilov Ravshan Yakubjon o'g'li**

An Evaluation of the Impact of The Theme-Based Approach on Young Learners' Speaking Development.. 113
**Khamraeva Gulchekhra Ibrakhimovna**

O'smirlar o'rtasida o'zaro hamkorlikni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar ..... 118
**Majidov Jasur Baxtiyarovich, Xolmatova Dilorom Vahobjon qizi**

Informatika fanini o'qitishda mobil dasturiy vositalaridan foydalanish imkoniyatlari ..... 123
**Jo'rayev Ilhom Isxoqovich**

Muqimiy asarlari vositasida talabalarda kitobxonlik tizimini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish ..... 126
**Muxlisa Satriddinovna Muhitdinova**

Korpus lingvistikasida lingvostatistik tahlil metodi ..... 132
**Nuritdinov Abrorbek Sayfiddin o'g'li**

Bo'lajak o'qituvchilarni ruhlantirish va o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ..... 136
**Umarova Feruzabonu Bobir qizi, Samandarova Dildora Javlon qizi**

Tizimli-faoliyatli yondashuv asosida umumpedagogik akt kompetentlikni shakllantirish muammosining nazariy-metodologik jihatlari ..... 139
**Saloxiddinova Umidaxon Mansurjon qizi**

Nutqiy kamchiliklarni kamaytirishda o'yinlarning o'rni ..... 143
**Jabborova Oltinoy**

Matn bilan ishlash bosqichlari va ularning ingliz tilini o'rgatishdagi didaktik ahamiyati ..... 146
**Soliyev Umidjon Yulchivoyevich**

Ta'lim tizimini boshqarishda talabalar boshqaruvining qiyosiy tahlillari ..... 150
**Uzaqov Nomozali Hamdamovich**

Zamonaviy ta'lim muassasalarida pedagoglarning boshqaruv malakasini rivojlantirish yo'llari ..... 153
**Z. M. Zarifova**

# IQTISODIY SAVODXONLIKNI OSHIRISHDA O‘ZBEK TILINING TA’SIRI



Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi mudiri, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
**ORCID: 0000-0002-3898-2113**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada iqtisodiy savodxonlikni oshirish jarayonida o‘zbek tilining tutgan o‘rni va ahamiyati tahlil etiladi. Til – nafaqat aloqa vositasi, balki bilim va tushunchalarni keng ommaga yetkazish, iqtisodiy tushunchalarni xalq ongiga singdirishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqotda o‘zbek tilida yaratilgan iqtisodiy atamalar, ommaviy axborot vositalarida iqtisodiy mavzularni yoritish hamda ta’lim tizimidagi iqtisodiy kontentlarning til jihatidan tahlili o‘rganilgan.

**Kalit so‘zlar:** iqtisodiy savodxonlik, o‘zbek tili, iqtisodiy atamalar, til ta’siri, ommaviy axborot vositalari, ta’lim, iqtisodiy madaniyat.

**Abstract:** This article analyzes the role and importance of the Uzbek language in the process of improving economic literacy. Language is not only a means of communication, but also an important tool for conveying knowledge and concepts to the general public, and instilling economic concepts in the minds of the people. The study examined the economic terms created in the Uzbek language, the coverage of economic topics in the media, and the linguistic analysis of economic content in the education system.

**Key words:** economic literacy, Uzbek language, economic terms, language influence, media, education, economic culture.

**Аннотация:** В статье анализируется роль и значение узбекского языка в процессе повышения экономической грамотности. Язык – это не только средство общения, но и важный инструмент передачи знаний и концепций широкой общественности, а также внедрения экономических концепций в сознание людей. В ходе исследования были изучены экономические термины, созданные на узбекском языке, освещение экономических тем в средствах массовой информации, а также лингвистический анализ экономического контента в системе образования.

**Ключевые слова:** экономическая грамотность, узбекский язык, экономические термины, языковое влияние, средства массовой информации, образование, экономическая культура.

## KIRISH

Iqtisodiy savodxonlikni oshirish masalasi bugungi kunda nafaqat O‘zbekiston, balki global miqyosda ham dolzarb ahamiyatga ega. Mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarning jadal sur’atlarda amalga oshirilayotgani va aholining iqtisodiy faoliyatda faol ishtirok etishi zarurati tufayli iqtisodiy savodxonlikni oshirish masalasi yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonda tilning o‘rni beqiyosdir, chunki iqtisodiy bilimlarni to‘g‘ri va samarali uzatish uchun tegishli atamalar va tushunchalar xalq tiliga mos ravishda bayon qilinishi lozim.

O‘zbek tilining iqtisodiy atamalarni shakllantirishda va iqtisodiy mavzularni keng ommaga yetkazishda tutgan o‘rni dolzarbdir. O‘zbek tilida iqtisodiy bilimlarni ommalashtirish, ular bilan ishlashni yengillashtirish, ta’lim tizimida iqtisodiy fanlarni ona tilida o‘qitish nafaqat iqtisodiy savodxonlikni oshiradi, balki milliy iqtisodiy ongni shakllantirishga xizmat qiladi. Shunday ekan, bu masala, ayniqsa, ta’lim, ommaviy axborot vositalari va davlat siyosati nuqtai nazaridan katta ahamiyatga ega. Bugungi globallashuv va axborot asrida iqtisodiy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish har bir fuqaroning hayotida muhim o‘rin egallamoqda. Iqtisodiy savodxonlik – bu shaxsning moliyaviy qarorlar qabul qilishda ongli ravishda harakat qilishi, jamiyatdagi iqtisodiy jarayonlarni tushunishi va ularga moslashishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va tajribalar yig‘indisidir. Shu nuqtai nazardan qaralganda, iqtisodiy savodxonlikni ommalashtirish va aholining turli qatlamlari orasida keng yoyish dolzarb masalaga aylanmoqda.

MAKTABGACHA PRE-SCHOOL ДОШКОЛЬНОЕ

Bunda asosiy vositalardan biri – til sanaladi. Ayniqsa, davlat tili bo'lgan o'zbek tilining iqtisodiy bilimlarni yetkazishdagi roli beqiyosdir. O'zbek tilida iqtisodiy atamalarni shakllantirish, ularni ommaga tushunarli tarzda yetkazish, ta'lim va axborot vositalarida iqtisodiy mazmundagi materiallarni ona tilida yoritish orqali keng jamoatchilikning iqtisodiy savodxonligini oshirish mumkin. Ushbu maqolada aynan shu masalaga – iqtisodiy savodxonlikni oshirishda o'zbek tilining tutgan o'rni, imkoniyatlari va istiqbollariga e'tibor qaratiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy savodxonlik va tilshunoslik kesishgan nuqtalarda olib borilgan tadqiqotlar soni ko'p bo'lmasa-da, mavjud adabiyotlar ushbu mavzuning dolzarbligini tasdiqlaydi. A. Jo'raev, M. Karimov, N. Qodirov kabi olimlarning iqtisodiy madaniyat, iqtisodiy tafakkur va savodxonlik masalalariga oid tadqiqotlarida aholining iqtisodiy bilim darajasini oshirish zaruriyati ta'kidlangan. Ular iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirishda mahalliy til va madaniyatning o'rni katta ekanligini qayd etishadi. Shuningdek, O'zbekistonda iqtisodiy terminologiyani shakllantirish borasida O. Matyoqubov, Sh. Jo'rayev kabi tilshunos olimlarning ishlari alohida ahamiyatga ega. Ular iqtisodiy atamalarni o'zbek tiliga moslashtirishda lingvistik mezonlarga asoslanish, ularning ommabopligi va tushunarliligini ta'minlash zarurligini ta'kidlaydilar.

Ommaviy axborot vositalarining iqtisodiy savodxonlikka ta'siri masalasida esa jurnalistika va kommunikatsiya sohasida yozilgan tadqiqotlar – masalan, X. Qo'chqorova va G. Mamatqulovaning ishlarida iqtisodiy mavzularni sodda, ravon va xalqchil tilda yoritish orqali keng jamoatchilikka ta'sir ko'rsatish mumkinligi isbotlangan. Shuningdek, xalqaro tajriba asosida yozilgan ingliz tilidagi adabiyotlarda (masalan, OECD va World Bank hisobotlarida) iqtisodiy savodxonlikni oshirishda ona tilining roli alohida ajratilgan. Bu manbalar O'zbekistonda ham shu yo'nalishda olib borilayotgan ishlarni xalqaro standartlarga moslashtirishga yordam beradi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda iqtisodiy savodxonlikni oshirishda o'zbek tilining ta'sirini o'rganish uchun kompleks yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot doirasida bir nechta metodlar uyg'unlashtirilgan holda qo'llandi. Tahliliy metod orqali mavjud ilmiy adabiyotlar, maqolalar, davlat dasturlari va strategik hujjatlar o'rganilib, ularda iqtisodiy savodxonlik va til masalalariga berilgan baholar tahlil qilindi. Solishtirma metod yordamida boshqa davlatlar, xususan, ona tilida iqtisodiy bilimlarni ommalashtirishga erishgan mamlakatlar tajribasi O'zbekiston sharoitiga taqqoslab o'rganildi. Kontent tahlil orqali ommaviy axborot vositalarida (gazeta, jurnal, internet saytlar, teleko'rsatuvlar) chop etilgan iqtisodiy mavzulardagi materiallar til va mazmun jihatidan tahlil qilindi; ayniqsa, foydalanilgan atamalar, uslubiy yondashuvlar va tushunarlilik darajasi e'tiborga olindi.

Sotsiologik so'rov va kuzatuv metodi asosida oliy ta'lim muassasalari talabalari, o'qituvchilar hamda iqtisodiy soha vakillari orasida so'rovnomalar o'tkazilib, iqtisodiy tushunchalarni qabul qilishda tilning o'rni va ahamiyati yuzasidan fikrlar yig'ildi. Tavsifiy metod orqali esa olingan natijalarga tayanib, iqtisodiy savodxonlikni oshirishda o'zbek tilining samaradorligi, imkoniyatlari va mavjud muammolari bayon qilindi. Mazkur metodlar birgalikda qo'llanilishi natijasida mavzu chuqur tahlil qilinib, o'zbek tilining iqtisodiy bilimlarni ommaga yetkazishdagi o'rni va ahamiyati aniq faktlar hamda dalillar asosida yoritildi.

## TAHLILLAR VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, o'zbek tilida yaratilgan iqtisodiy kontentlar aholi tomonidan ko'proq qabul qilinadi va tushuniladi. Ayniqsa, rasmiy va murakkab atamalar oddiy tilda izohlanganida yoki hayotiy misollar bilan tushuntirilganida, auditoriyaning qiziqishi va tushunish darajasi oshadi.

Ommaviy axborot vositalarida iqtisodiy mavzular yoritilishining til jihatidan tahlili shuni ko'rsatdiki, ko'plab materiallarda xorijiy atamalar tarjima qilinmagan holda qo'llaniladi, bu esa auditoriyaga ma'lumotni to'liq anglashda qiyinchilik tug'diradi. O'quv materiallarining tahliliga ko'ra, o'zbek tilidagi darsliklar va metodik qo'llanmalar talabalarning mavzuni o'zlashtirishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, iqtisodiy atamalarni xalq mentalitetiga moslashtirish, ularni hayotiy holatlar orqali tushuntirish, bilimlarni tezroq va samaraliroq singdirishga xizmat qilmoqda. So'rovnoma va suhbatlar asosida olingan natijalar tilning ta'sirchanligi borasida aniq dalillarni ko'rsatdi. Ishtirokchilarning aksariyati iqtisodiy tushunchalarni o'z ona tilida o'rganishni afzal ko'rgan. Bu esa o'zbek tilining nafaqat madaniy, balki amaliy jihatdan ham iqtisodiy savodxonlikni oshirishda muhim omil ekanligini isbotlaydi.

Shuningdek, o'zbek tilida yaratilayotgan iqtisodiy kontentlar soni va sifati oshib borayotgani quvonarli holatdir. Biroq ularni yanada takomillashtirish, atamalarni yagona tizimga solish, soddalashtirish va keng auditoriyaga qulay shaklda taqdim etish zarurati mavjud. Shu orqali iqtisodiy savodxonlik darajasini yanada oshirish mumkin bo'ladi. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy savodxonlikni oshirishda ona tilining, xususan, o'zbek tilining roli nihoyatda muhimdir. Til – nafaqat axborot uzatuvchi vosita, balki bilimlarni xalq

ongiga singdiruvchi, ularni qabul qilishni yengillashtiruvchi kuchli omildir. O‘zbek tilida iqtisodiy tushunchalar sodda, tushunarli va xalq ongiga yaqin shaklda ifoda etilsa, ularning keng omma tomonidan qabul qilinishi va amaliyotda qo‘llanilishi osonlashadi.

## XULOSA

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, hozirgi kunda iqtisodiy atamalarni standartlashtirish, ularni ona tilida ommabop shaklda yetkazish hamda o‘quv va ommaviy axborot vositalari orqali samarali tarqatish dolzarb masalalardan hisoblanadi. O‘zbek tilining boy imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish, til va iqtisodiy tafakkur uyg‘unligini ta’minlash orqali aholining iqtisodiy madaniyatini oshirish mumkin. Shu bois, iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirish strategiyalarida til omili alohida e’tiborga olinishi lozim. Bu nafaqat bilim darajasini oshiradi, balki mamlakatda iqtisodiy faollik va ongli qarorlar qabul qilish madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-sonli Farmoni. https://lex.uz/docs/-5841063
2. Karimov B. va boshqalar. Iqtisodiy bilim asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
3. Qodirov M., Ergashev A. O‘zbek tilida iqtisodiy atamalar: tahlil va takliflar. – “Til va adabiyot” jurnali, 2021, №2.
4. Rasulov Sh. Iqtisodiy madaniyat va savodxonlik: nazariy va amaliy yondashuvlar. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.
5. Xolmatova Z. Axborot vositalarida iqtisodiy mavzular: til va uslub tahlili. – “OAV va jamiyat” jurnali, 2020, №4.
6. Yuldasheva D. B. The Intensification of Learning Uzbek Language Using Moodle Technology [Article]. Psychology and Education, International Scientific Journal, 2021. 58(2): pp. 224–230.
7. Yuldasheva D. B. Approach Is the Main Strategic Direction Which Defines the Components of Teaching the Uzbek Language. Science and World, International Scientific Journal, №2 (90), 2021.
8. Yuldasheva D. B. Organization of Terms as a Factor for the Improvement of Economic Sciences [Article]. Euroasian Research Bulletin, International Scientific Journal, 2021. Volume 2.

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha) |
| 13.00.07 | Ta'limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov
**Musahhih:** Alibek Zokirov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

2025. №6

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali 26.09.2023-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C–5669363 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.